

# TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 25 (66306)  
2001 yil 22 iyun, juma

Sotuvda erkin narxda



## TINCHLIK USTUNLARI

Butunjahon Yapon Goi fondi «Rabat Malik» sayohatchilar assotsiatsiyasi, Samarqand tinchlik va hamdo'stlik muzeyi, Chilonzor tuman hokimiyati bilan birgalikda Toshkentdagi Mirzo Ulug'bek nomidagi bog'da tinchlik ustunini o'rnatishdi, deydi Pyotr BARABASH.

Yaqinda Yaponiya Goi fondi delegatsiyasi Respublikamizga tashrif buyurdi. Bu tashkilot 1999 yil Tokioda yapon pedagogi, shoiri va filosofi Masaxis Goi sharafiga tashkil qilingan edi. Fond a'zolari BMT bilan hamkorlikda tinchlik uchun ish olib boradilar. Har yili Goi fondi yoshlar o'rtasida xalqaro tanlovlar o'tkazib turadi. Mana bu yili ham eng yaxshi insho tanlovida O'zbekistonlik yoshlar, xususan «Rabat Malik» yosh sayyohlar klubi a'zolari ishtirok etdilar.

O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan ushbu tashkilotlar tinchlik ramzini ifodalovchi o'nta ustunni turli shaharlarga o'rnatmoqdalar. Samarqandda, Shaxrisabzda, Buxoroda o'rnatilgan ustunlar qatoriga Toshkentdagi Mirzo Ulug'bek bog'idagi ustun qo'shildi. Tadbir davomida BMTga a'zo 191 mamlakat bayroqlari ko'tarildi. «Dunyoda tinchlik bo'lsin. O'zbekistonda tinchlik bo'lsin» shiori ostida Toshkent hokimiyati vakili Abdurasul Abdug'aniyev O'zbekiston bayrog'ini ko'tardi. Goi fondi vakili Masayo Shibamoto janobi oliyalari o'zbekistonlik bolalarga tinchlikni, osoyishtalikni va o'qishlariga yutuqlarni tiladi. Yosh sayyohlar klubi rahbari Soy Viktor «Faqatgina tinchlik va barqarorlik barchamizni birlashtiradi. Planetamiz biz o'ylaganchalik bepoyon emas. Bir fursatda dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga borish mumkin. Mana Yaponiya biz uchun yaqin bo'lib qoldi. Demak, dunyo ham yaqin», dedi.

Nargiza ABDULLAYEVA  
yozib oldi.

## O'ZBEK TILIM - O'Z TILIM

Biz dugonalarimiz bilan o'zaro sof o'zbek tilida so'zlash o'yinini o'ynayapmiz. Bilasizmi, avvaliga uddalash ancha qiyin bo'ldi. Chunki har gal ruscha so'zlarni aralastirib gapirib yuborardik-da. Endi esa tilimiz ham anchagina kelishib qoldi. Birorta ham ruscha so'z qo'shmay o'zaro gaplashmoqdamiz. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning asarlaridagi bizga notanish bo'lgan so'zlarni yozib olib, ularning mag'zini



chaqishni o'rganyapmiz. Qodiriy tilining shirinligini aytmayizmi. Qani endi barcha insonlar o'zaro shunday sertakalluf, xushmuomala bo'lishsa. Buning esa hech qiyin joyi yo'q. Ko'proq kitob mutolaa qilsa, insonning so'z boyligi ham shuncha ortaveradi.

Nazira AHMEDOVA,  
Andijon viloyati,  
Andijon tumanidagi  
14-umumta'lim  
maktabining  
7-sinf o'quvchisi.



## MEN HAM «TONG YULDUZI»NI O'QIYMAN

Keling tanishaylik! Mening ismim Jahongir. Men G'alabaning 40 yilligi mavzesidagi Usmon Nosir mahallasida yashayman. Yaqinda mening sevimli 558- sonli bolalar bog'chasida «Xayrlashuv kechasi» bo'lib o'tdi. Endi men ham katta bo'lib qoldim va hademay maktabga chiqib, opa-akalarim sevib o'qiydigan «Tong yulduzi» gazetasini o'qiydigan bo'laman.



## KO'M-KO'K, KO'M-KO'K, KO'M-KO'K...

Mana yurtimizda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari davom etmoqda. Jumladan viloyatimizda, xususan shahrimizdagi ishlarning bir shingilini sizlarga aytay. Tevarak atrof axlatlardan tozalanib, supurildi. Yo'lakchalar asfaltlandi va atroflariga daraxtlar o'tqazildi. Barcha daraxtlar oqlandi. Undan tashqari rang-barang gul ko'chatlari o'tqazildi. Bunday xayrli va savobli ishni Yalpoqtepa mahallasidan Uzoq aka Latipov, Sulton aka Toshpo'latov, Sattor aka Xursandov, Ma'rufboy bobo Shomurodov, Aslam aka Hazratqulov tashabbuslari bilan boshladik. Maktabimizning yuqori sinf o'quvchilari ham astoydil mehnat qilishdi. Biroq barcha harakatlarimiz zoye ketmadi. Agar biz tomonga kelsangiz, o'zingiz ham guvohi bo'lasiz.

Dilnoza HAMDAMOVA,  
Samarqand viloyati, Urgut  
shahridagi 121-maktabning  
6-sinf o'quvchisi.

## HAQ - HUQUQIMIZNI ANGLAB YASHAYLIK

Yurtimiz aholisining asosini yoshlar tashkil etadi. Bu esa O'zbekistonimizning kelajagi buyukligidan bir nishonadir.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida ishlab chiqilgan «Yoshlar to'g'risida»gi qonun loyihasi biz yoshlarning kuchiga kuch, harakatiga barakat kiritdi. Bugungi kunda Respublikamiz yoshlari orasida yetuk, o'z sohasini mukammal egallagan, chet ellarda o'qib, malakalarini oshirib qaytganlarning soni ortib borayapti. Sportning ayrim turlari bo'yicha Respublikamiz dovrug'ini jahonga taratishga o'z hissalarini qo'shayotganlar ham oz emas.


«Onalar va bolalar»yilida katta-katta tadbirlar ma'lum reja asosida amalga oshirilayotganiga guvoh bo'layapmiz. Onalar va bolalar uchun dam olish uylari, sihatgohlar tashkil etilmoqda. Zamonaviy tibbiyot asboblari bilan jihozlangan shifoxonalar ishga tushirilmoqda.

Bunday tadbirlarning amalga oshirilishi onalar va bolalarga bo'ladigan g'amxo'rlikning yana bir namunasidir. Yurtimiz bolajon davlat ekanligini yana bir bor ta'kidlab, ularning qonuniy huquqlarini himoya qilish maqsadida maktablarda ko'plab tadbirlar uyushtirilsa ayni muddao bo'lardi. Biz yoshlar o'z huquqlarimizni puxta o'rganib olsak, qonunlarga hurmat bilan qarasaq maqsadga muvofiq bo'lardi. Buning uchun «Bolalar huquqlari Konvensiyasi»dagi qonun-qoidalarni yaxshilab o'rganib olishimiz zarur. Shunda nimalarga qodir va huquqli ekanligimizni yanada yaxshiroq anglab yashardik.

G. KARIMOVA,  
Poytaxtimizdagi  
324- maktabning  
11- sinf o'quvchisi.

## EGASIZ JOYNING QANOTLI «EGA»LARI

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumaniga yo'lingiz tushsa, Tulaqul qishlog'iga ham albatta kirib o'ting. Faqat mashinangizning tagi ko'chamizning baland-past



joylariga tegib sizni bezovta qilsa, xafa bo'lmang. Chunki bu ko'chalar haligacha asfalt qilinmaganda.

Tulaqulga borganingizda Hamid Olimjon nomidagi 55- o'rta maktabga ham kirib o'tishni unutmang. Maktabimiz ko'rinishidan biroz chiroyli, ammo sport zaliga necha yillardan beri odam kirmaydi. Shuning uchun egasiz joyga egalik qilish maqsadida qanotli do'stlarimiz joylashib olishgan. U ham mayli, ishlatilmasa ham asli bor. Maktab stadionining butunlay yo'qligi kishini ajablantiradi. Axir maktab bo'lgandan keyin stadion ham bo'lishi kerak-ku. Yoki bu qishloqlarda sportning rivojlanishiga e'tiborsizlikmi?

Elektr energiyasining bir kun yonib, ikki kun o'chishi natijasida qishloqning zimistonga aylanib qolishi odamlarning alamini keltirishi tabiiy albatta. Bu kabi yengilmas muammolarning ko'p yillardan beri davom etib kelayotganligi nahotki hech kimni e'tiborini tortmasa? Kim biladi deysiz bu hol yana qancha davom etar ekan?

Ortiqxo'ja NOROV,  
Alisher Navoiy nomli  
nafis san'at litseyining  
10- sinf o'quvchisi.

## TINCH QUSHIM - HUMO QUSHIM

Men maqola va she'rlar yozib, tumanimizning «Yangibozor ko'zgusi», «Xorazm yoshlari» kabi gazetalarida muntazam qatnashib kelaman. Ushbu tahririyat xodimlari menga katta dars sabog'ini o'rgatdilar. Avvaliga yozgan she'rlarimning bo'shligi, maqolalarimning g'o'rliigi va puxta emasligi haqida gapirishganida sal ranjigan edim. Endi esa tushunib yetdimki, ular mening foydamni ko'zlab gapirishar ekan. Kichkinagina, murg'akkina yosh shoirani yetuklikka yetaklashgan ekan. Hozir ham mendan maslahatlarini ayashmaydi. Hurmatli «Tong yulduzi» xodimlari, sizlarga she'r jo'natishga ahd qildim. Ma'qul kelsa nashr qilsangiz, yoki o'z fikrlaringizni bildirib maktub jo'natsangiz. Men tanqiddan qo'rqmayman. Aytishadiku, tanqid asarni charxlaydi, deb.

**Charx urasan osmonda,  
Qanotlaringni qoqib.  
Osmonni sen quchasan,  
Tinchlik deya jar solib.**

**Erkin aylagin parvoz,  
Tinch qushim - humo qushim.  
Sevimlisan jahonda,  
Oq qushim, tumor qushim.**

*Umida NURMETOVA,  
Xorazm viloyati,  
Yangibozor tumanidagi  
1-maktabning 5-sinf o'quvchisi.*



*Kompyuter saboqlarini Sharipova Muhabbat opadan o'rganganim bois, ularga ta'zim qilaman.*

## ORZULAR DAVOMCHILARI

Bir kuni algebradan imtihon topshirayotgan edik. Ushbu fan o'qituvchisi Gulchehra opa Muhammedova aslida bizning sinf rahbarimizdirlar. Ayni imtihon qizib, o'quvchilar testlarni yechish bilan ovora bo'lib turgan paytda oynai jahondan xodimlar kelib, imtihon pallasini suratga olishdi. Keyin 6 iyun kuni soat 18.25da O'zbekiston birinchi kanalida «Orzular davomchilari» degan ko'rsatuvda ko'rsatishdi. Ko'rsatuvda maktabimiz hayotidan bir kuni lavha qilib berilgan bo'lsa-da, teletomoshabin o'ziga bir olam taassurot oladigan darajada mukammal edi. Maktab rahbari Muhammadjonova Nazira Ortiqovnaning mehnatlari o'laroq yutuqlarga erishgan maktabimiz haqida bir necha soatlik ko'rsatuv tayyorlansa ham arziydi.

*Ozoda MIRHAMIDOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
223-maktabning 9-sinf o'quvchisi.*

## O'QISH ZARURMI?

Maqola sarlavhasini bunday nomlashimning sababi hozirgi yoshlarimizning qanday bilim olishlariga qiziqishim bo'ldi. Umuman ular qanday o'qishmoqda? Ular bilimga chanqoqmi? Hozirgi yoshlarimizning ko'pi dars qilish u yoqda tursin, hatto qo'llariga kitob ham olishmaydi. Masalan, maktablarda. Bir sinfda 30 nafar bola o'qisa, o'shandan atigi ikki yo uchta a'lo baholarga o'qiydi. Boringki, beshtasi. Qolganlar-chi?

Bu har bir maktabning har bir sinfida bo'ladigan tabiiy hol. Aziz o'quvchi, sen achchiq haqiqatni o'qib jahling chiqayotgandir. Bu senga tegishli emas, gap egasini topadi. Sen qo'lingga ushbu gazetani olib o'qiyapsanmi, demak sen ta'lim oladigan, dars tayyorlaydigan o'quvchisan. Biroq, sen atrofingga ham razm sol. Tahsil olishni istamaydiganlarni to'g'ri yo'lga boshlashga harakat qil. Chunki yoshlik tez o'tib ketuvchi jarayon. O'tayotgan har vaqtning qadriga sen yetasan, do'stlaring ham yetsinlar. Shuning uchun ham o'qish, o'rganish, izlanish zarur.

*Shahodat MIRZAALIYEVA.*

## UMR - OQAR DARYO

Asalat Do'stmatova 1951 yilda Pskent shahrida oddiy oilada dunyoga keldi. Kasbi - o'qituvchi. Shiori - o'zgaralar oldida, oilada ham, kasbida ham uyaliq qolmaslik. Maqsadi - o'quvchilarni bilimdon qilish.

## KICHIK ASALATNING KATTA ORZULARI

Jamalaksoch kichkina Asalat mahalla qizlarini yig'ib, «maktab-maktab» o'yinini o'ynashni yaxshi ko'rar edi. Har galgidek u o'qituvchi bo'lar, o'z bilgicha yozish-chizishni o'rtoqlariga o'rgatardi. Qizining bu o'yinini ko'rgan otasi onasiga:

-Qara, Sharofat, buningdan o'qituvchi chiqadi-yov,- derdi.

## ORZULARNING USHALISHI

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, 1969 yili Asalat opa Sirdaryo Davlat Pedagogika institutining ona tili va adabiyot fakultetiga o'qishga kirdi. Yozuvchi O'tkir

Hoshimovning «Murg'ak bolaning oppoq qalb daftariga insonlik degan so'zni o'yib yozish huquqi faqat o'qituvchiga berilgan» deganidek, Asalat opa ham go'zal qalb egalari - murg'ak bolalarga ilm berish uchun muallimlik darajasiga yetdi.

## USTOZ -


## SHARAFLIDIR

Asalat opa olgan bilimlarini yosh avlodga berish uchun Pskent tumanidagi 6-o'rta maktabda ish faoliyatini boshlab yubordi. Muallimlik nihoyatda sermashaqqatli kasbdir. Kasb sirlarini o'rganishda til va adabiyot o'qituvchilari O'g'iloy opa Najmiddinova, Tursunoy opa Yunusovalardan maslahatlar olib turdi. O'quvchilarga mehr qo'rini baxshida etdi.

Muallimlik barcha ezgu ishlarining debochasidir. Shogirdlari Nasiba Isroilova, Dilnavoz Shokarimova, Barno Mirkamolova, Nilufar Qayumova,

Karima Oxunovalar ham ona tili va adabiyotdan dars bermoqdalar. Asalat opa o'z ishini sidqidildan bajaradi. Ularning ustozlik faoliyati Xalq ta'limi bo'limi tomonidan munosib taqdirlangan. 1990-91 o'quv yilida «Katta o'qituvchi» unvoni, 1991 yil mart oyida 15- Respublika pedagoglar o'qishida faol qatnashgani uchun «Xalq maorifi a'lochisi» unvoni, 1994 yili Oliy toifali o'qituvchi unvoni bilan taqdirlanganlar.

*G. RASULOVA,  
Toshkent viloyati,  
Pskent shahri.*



## XAYR MAKTABIM

Maktabimizda so'nggi qo'ng'iroqni hayajon bilan qarshi oldik. Ko'zlarimizdan quvonch yoshlari qalqidi. Biz bu so'nggi qo'ng'iroqdan shuni his qildikki, qardron maktabimiz, sho'x bolaligimiz, sinflarimiz partalarimiz ortda qolganini tushundik. Gohida ustozlarimizga turli bahonalar bilan yolg'on gapirganlarimizdan qattiq iztirob chekdik. Ayrim o'quvchilar o'z o'qituvchilaridan noto'g'ri ishlari uchun kechirim ham so'rashdi. Talashib-tortishib qolgan sinfdoshlar yarashdi.

O'z navbatida biz bitiruvchilar mustaqil hayotga qadam qo'yayotib, oldindagi barcha to'siqlarni yengib o'tishga ahd qildik.

*Dilbar OTAJONOVA,  
Toshkent viloyati, Zangiota  
tumanidagi Do'stlik nomli  
16-maktab o'quvchisi.*

## ADASHIMGA MAKTUB

Bir kuni odatdagidek, «Tong yulduzi»ni qo'limga olib varaqlay boshladim. «Oynisaning amonlari bor» nomli maqola (18-son, 2-bet) diqqatimni o'ziga jalb etdi. Maqola qahramoni men bilan hamnom (adash) ligini ko'rib, uni odatdan tashqari qiziqish bilan o'qishga tushdim. Ha, ushbu gazetada o'zining qator maqolalari va boshqotirmalari bilan muntazam qatnashib turadigan Oynisa Eshmurodovaku, dedim ichimda. So'ngra

Oynisa bilan juda-juda do'stlashgim keldi.

Oynisaxon, menga xat yo'llaysiz, degan umiddaman. Xatingizni dugonalarim Dilobar, Hilola, Munira va Barnolarga ko'rsatardim.

*Oynisa HOJIYEVA,  
Buxoro viloyati, Vobkent tumani,  
Zarafshon shirkat xo'jaligidagi  
1-iqtidorli bolalar gimnaziyasining  
8-sinf o'quvchisi.*

## BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...

Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

## IKKI YELKASIDA SUV

Do'stlarim, qishlog'ingiz, tumaningiz, shahringiz, qolaversa yurtningiz nomlarining kelib chiqish tarixini qay darajada bilasiz? Keling, barchamiz o'z ona maskanimiz nomlari tarixini o'rganishga kirishsak, axir ta'tilni bekorchilikda o'tkzaksak yaxshi emasku. Mana men bugun Kitob shahri nomining tarixi haqida so'zlamochiman.

Jannatmakon yurtning olis burchagida Kifti ob - Kitob deb ataladigan sersuv, unumli, go'zal tabiatli, tog'lar bilan o'ralgan o'lka joylashgan. U Qashqadaryo viloyatining bir burchagida joylashgan bo'lib, ikki yelkasidan ikki daryo - Qashqadaryo va Oqdaryo aylanib o'tib, yana bir joyda tutashadi. Shuning uchun ham bu vohani Kifti ob, ya'ni «ikki yelkasida suv» deb atashadi.

*Siyovush HOSHIMOV,  
Qashqadaryo viloyati.*

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON - YOSHLAR 20'LIDA

«Kelajak yoshlar qo'lida». Bu gapning zamirida qanchadan qancha ma'no bor. Bu esa birgina yoshlarning dunyoqarashi, ongi, bilimi, kelajakka bo'lgan intilishi ko'zda tutiladi.

Ota-onamiz yaratayotgan shart sharoitlardan qo'rqmasdan foydalanishimiz darkor.

Shundagina **Bir o'quvchidan ikki xabar** erkin fikr yuritish, milliy qadriyatlarimizni chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yaqinda «Mehrjon» tashkiloti poytaxtimizning Xalqlar Do'stligi saroyida katta festival uyushtirdi. Sahnaga chiqayotgan bolajonlarning ko'zlarida mehr, qalblarida his-hayajon jo'sh urib turardi. Ularni faqatgina g'amgin qalblari ona mehri ta'lim turardi.

Festivalga kelgan mehmonlar bolajonlarga o'z sovg'alarini topshirishdi.

## 893 AYL VA 7102M93

Mana yillar, oylar o'tib biz ham maktab quchog'ida o'n bir yil davomida o'sib-ulg'aydik. Ustozlardan ilm sabog'ini oldik.

Maktabimizda barcha sharoitlar bor. Kompyuterlar xonasida bolalar doimo gavjum. Sport zallarida bo'lajak sportchilar kuch sinashadi. Biroq shunday sharoitda ham bizning sinf unchalik ahil emasdi. Yuqori sinfda o'qisak ham o'g'il bolalar qizlarga laqab qo'yishardi. O'zaro muomalasi ham yaxshi emasdi.

So'nggi qo'ng'iroq hammasini o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, o'g'il bolalar juda o'zgardi. Ularning dil so'zlari, ustozlardan, sinfdoshlaridan kechirim so'rashlari bizda ham mehr uyg'otdi. Hatto qizlarga bag'ishlab aytilgan hazil she'rlari ham samimiy bo'ldi.

Biz sinfdoshlar birgalashib Xotira maydoniga bordik. Esdalik uchun suratga tushdik. Bu kun bizning qalbimizda bir umrga muhrlanib qoldi.

**Nargiza NOSIRXO'JAYEVA**

*Toshkent shahridagi 35-maktabning 11-sinf o'quvchisi.*

## OBIDALAR QURSHOVIDA

Yaqinda maktabimizning o'ttiz nafar o'quvchilari, o'n nafar o'qituvchi va ota-onalari bilan birgalikda ko'hna va go'zal Samarqandga safar qildilar. Tabiiyki men ham ularga hamroh bo'ldim. Baxmal tog'lari orqali o'tgan yo'ldan borar ekanmiz, o'quvchilarning ko'zlarida hayrat va shu yerlarda yashaydigan tengdoshlariga nisbatan havas namoyon bo'ldi. Ko'p o'tmay, imom al-Buxoriy ziyoratgohiga yetib bordik. Xadis ilmining targ'ibotchisi bo'lgan bobomiz haqida katta taassurotlarga ega bo'lib shahar markaziga yo'l oldik. U yerdagi Tillakori madrasasi, Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Go'ri Amir maqbarasini ko'rib haqiqiy mo'jizalarga duch kelgandek bo'ldik. Hunarmand bobolarimiz qo'li gul ustalarimiz yaratgan betakror san'at asarlari barchani, xorijdan kelgan mehmonlarni ham hayratga solayotganligiga guvoh bo'ldik, dilda faxr hissini tuydik. Shohizinda yodgorlik majmui, Ulug'bek rasadxonasi bilan tanishish davomida biz diyorimizdagi tarixiy maskanlarni o'z ko'zimiz bilan ko'rish baxtiga muvassar bo'lganimizdan quvondik. Kimdir baland minoralarga, go'zal gumbazlarga termuladi. Yana kimdir usta qo'llar bilan yaratilgan milliy hunarmandchilik mahsulotlarini kuzatish bilan ovora.

Ha, safardan qaytar ekanmiz, ko'nglim kulbasidan sado keldi. «Sayohat - rohat bo'lish bilan birga olamni anglash, dunyoni ko'rish, hayotning asl mazmunini tushunish ekan». Do'stlarim, sizlar ham ta'til davomida qadimiy go'shalarga sayohat qiling. Dunyo mo'jizalarga boy ekaniga shubha qilmaysiz.

**Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,**  
*Toshkent viloyati,  
Chinoz tumani.*

## QO'SHALOQ BAYRAM

1991 yil yurtimiz uchun juda baxtli yil bo'ldi. 31 avgust kuni O'zbekistonimiz mustaqil deb e'lon qilindi. Buni eshitgan barcha o'zbek xalqi, jumladan mening otam ham juda quvondilar.

Oilamizda quvonch ketidan quvonch ulandi. Sababi men, 1991 yil 1 sentyabr kuni tug'ildim. Yillar o'tgan sari ulg'aya boshladim. Do'stlarim ko'paydi. Mustaqil yurtimiz ham asta-sekin rivojlanib bordi. Uning ham do'stlari, o'rtoqlari ko'paydi.

Respublikamiz besh yoshga to'lganida O'rta Osiyoda yagona mashina ishlab chiqaradigan qo'shma korxonasi ish boshladi. Bugungi kunda «Neksiya», «Tiko», «Damas» avtomobillari jahon bozoriga chiqdi.

Hademay uyimizda qo'shaloq bayram bo'ladi. Men va Mustaqil Vatanim o'n yoshga to'ladi.

Yurtimizning o'n yillik to'yiga katta tayyorgarlik ketayapti. Ko'plab zamonaviy inshootlar qurilayapti, yangi maktab va bog'chalar ishga tushayapti.

Men ham yurtimizning o'n yilligiga atab o'z dil izhorimni she'rim bilan bayon etdim.

**O'zbekiston Vatanim  
Sevimli jonu tanim.  
Men buyuk yurt farzandi  
Ota-onam dilbandi.  
Maqsadim a'lo o'qish  
Ilm olib, ko'p bilish  
Olgan bilimlarimni,  
Kelajak uchun sarflash.  
Mustaqillik tengdoshim,  
Kundan-kun o'sar yoshim,  
Ota-onam quyoshim  
Mehribondir yurt boshim.**

**Mahmudjon**

**AZIMOV,**

**Shayhontoxur**

**tumanidagi**

**G'afur-G'ulom nomli**

**169-maktabning**

**5- «G» sinf o'quvchisi.**



Shudgorlangan dalaning chetidagi bir kavakda chumolilar oilasi yashardi. Qish qattiq kelgani va cho'zilib ketgani

eslab ra'yidan qaytdi, non uvog'ini mahkam tishlab olib uyiga tomon qayta boshladi. Shu payt shovullab yomg'ir yog'ib yubordi. Jiqqa xo'l bo'lgan chumolining yurishga madori qolmay va bir qurigan yaproq ostiga kirib berkindi. Bir yog'ayotgan yomg'irga, bir non uvog'iga qarab, g'amgin holatda

**Alla-alla do'mbog'im,  
Qora-shirin munchog'im.  
Olti oyoq alponim,  
Yengilmas pahlavonim.**

Bolalar allani tinglab uxlab



## CHUMOLINING ALLASI

qoldilar. Chumoli bolalarining peshonasidan o'pib ularga baxt tiladi va o'zi ham ularning yoniga yotib uxlab qoldi. Uyqusida tush ko'rdi. Tushida keng g'allazorda bolalarini yetaklab yurganmish. Don mo'l emish. Bolalariga xirmonni ko'rsatib, dehqonning mehnati to'g'risida ertak aytib berayotgan emish.

**Dilnoza RO'ZIQULOVA,**  
**Shahrisabz tumanidagi**  
**Alisher Navoiy nomli**  
**102-maktabning**  
**5- «V» sinf o'quvchisi.**

## SIZGA OMAD

Mana jonajon maktabidan, qadrdon do'stlaridan ajralgan o'quvchining qalbi, maktabni tugatganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada shirin sog'inchlarga to'ldi.

Kuni kecha barcha ilm maskanlarida bitiruv imtihonlari yakunlandi.

Albatta har bir o'quvchi shahodatnoma olishni orzu qiladi. Bu kun ham bitiruvchilar maktabni bitirib mustaqil hayotga ilk qadamlarini qo'ymoqdalar. Ular oldilariga ulkan maqsadlarni qo'yib, turli oliy o'quv yurtlariga kirmoqchilar. Bu yil O'zbekiston bo'yicha 60000 ga yaqin o'quvchi maktabni bitirayotgan ekan.

Ko'pgina o'quvchilar maktab davridayoq biron bir sohani tanlab ana shu yo'nalish bo'yicha oliy o'quv yurtlariga hujjat topshiradilar. Bu yilgi bitiruvchilarning ichida ham oliy o'quv yurtiga kirmoqchi bo'lganlari talaygina. Albatta ularga birinchi o'rinda omad tilaymiz.

Ha aytgancha, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarga yana bir narsani e'lon qilmoqchi edim. Barcha oliy o'quv yurtlari, jumladan O'ZMU da ham qabul komissiyasi o'z ishini boshladi.

Barcha abituriyentlarga omad yor bo'lsin!

**Shahlo MUTALOVA,**  
*talaba.*

Samarqand qishloq xo'jaligi institutiga qarashli respublika litsey-internatiga iqtidorli o'quvchilar ichidan eng iqtidorlilari tanlab olinadi. Shuning uchun ham ushbu o'quv maskani O'zbekistonda ko'zga ko'ringan bilim o'choqlaridan biriga aylangan, desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

Litsey-internat

## IQTIDORLILAR BELLASHADI

1995 yilda tashkil etilgan. Bu yerda 200 ga yaqin bilimdon o'quvchilar asosan iqtisodiy, texnikaviy hamda tabiiy yo'nalishlarda chuqur bilim olishadi. Bilim dargohida o'quvchilar uchun barcha sharoitlar muhayyo. Shinam yotoqxona, sport zali, dam olish xonalari, cho'milish havzalari bolajonlar xizmatida. Qo'shimcha «Ma'naviyat va ma'rifat», kompyuter saboqlari o'quvchilarning zamonaviy bilimlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayni ta'til kunlari bo'lishiga qaramay litsey-internat o'quvchilar bilan gavjum. Sport zallari, kompyuter xonalari shular jumlasidandir. Litsey-internatni yakunlagan o'quvchilarning 95 foizi oliy o'quv yurtlari talabasi bo'lishyapti. Internatda o'quv-tarbiya ishlaridan tashqari

tadbirkorlik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Litsey-internat bog'iga qarashli ekinlardan tushgan daromad o'quvchilarga o'qituvchilar uchun sarflanadi. Litseyda faoliyat yuritayotgan kichik

bankning o'zidan o'tgan yili 1 mln. so'm daromad olindi.

Yosh avlodning chuqur bilim olishi uchun yetarli sharoit yaratib berayotgan 32 nafar o'qituvchilardan 12 nafari fan nomzodlari, dotsentu aspirantlardir. Litsey-internat direktori, fan nomzodi Hasanboy aka Sattorov o'ttiz yildan beri o'quvchi-talabalar orasida. Izlanuvchan pedagog-rahbarning tashkilotchiligi sabab ahil jamoa bir yoqadan bosh chiqarib ish yuritayapti.

-Biz kelajakda o'quv dargohimizni akademik litseyga aylantirmoqchimiz,- deydi Hasanboy aka Sattorov.- Buning uchun o'qitish ishlarimizning saviyasini yanada oshirishimiz lozim. O'quvchilarning Vatanimizning mustaqilligini mustahkamlash uchun o'z hissasini qo'shsa, deymiz

**Ulug'bek JUMAYEV.**

### YANGI MAKTAB QACHON BITADI?

Shohistaning kundaligini kuzatsangiz, ota-onasi uchun aytilgan: «shunday qiz tarbiyalaganingiz uchun sizlarga rahmat» degan yozuvga ko'zingiz tushadi.

Shohista o'qishda ham, odobda ham o'rtoqlariga o'rnak. Sinfdoxlari uni erkalatib «kompyuter» deyishadi. Chunki undan qaysi mavzuda so'rasangiz hech ikkilanmay, bemaol javob bera oladi.

Bilimdongina qizning maktabi ham zo'r bo'lsa kerak degan o'йда uning bilim maskani bilan qiziqdim.

- Televizorda chekka-chekka qishloqlardagi zamonaviy maktablar haqida lavhalar ko'rsatishsa, rosti havas bilan tomosha qilaman. Biz esa shundoqqina poytaxtning biqinida yashasak-da bir qavatli, juda eski binoda bilim olamiz. Eski bo'lsa ham talabga javob bersa mayli edi. Sport zali yo'q. Qish kunlari jismoniy tarbiya

soatlari umuman o'tilmaydi. Sinf xonalarida esa sharoit yo'q. Partalar eski, sinf pollari ko'chib, teshilib qolgan. Nogahon ruchkamiz yerga tushib ketsa, ololmay dog'da qolamiz. Hatto ruchkani olishga ham

yomg'ir yog'ib qolsa, sinfning bir nechta joyiga chelaklar qo'yib qo'yishadi. Chelakdagi suvni tez-tez to'kib turishmasa sinf xonasini suv bosishi aniq.

maktab emish. Menimcha bizlar 11 - sinfni ham eski maktabda tugatsak kerak.

Chunki hovlimizning o'zi hech bir oromgohdan qolishmaydi. Hovlimizning orqasidan Zag'ariqdan keladigan suv oqadi. U yerda har kuni dugonalarim bilan cho'milamiz. So'ngra o'zimning kutubxonamdagi kitoblardan o'qiyman. Kutubxonamda 30 dan ortiq kitoblarim bor. Ulardan Furqat, Mashrab she'riyati, meditsinaga oid kitoblar mening eng aziz kitoblarimdir.

Adam vrachlar. Menga ham hamshiralik, shifokorlikdan dars beradilar. Chunki o'zim qiziqaman. Adam bozorga borsalar, albatta men va opam Shodiya uchun kitob sotib olib keladilar. Shodiya opam matematikani juda yaxshi biladi. Gohida tushunmagan mavzularimni Shodiya opamdan bilib olaman. Ta'til kunlari ulardan zardo'zlikni o'rganyapman. Xullas yozgi ta'tilim ko'nglimdagidek o'tishiga ishonaman.

Feruza ODILOVA

## "KOMPYUTER" LAQABLI QIZ



Tengdoshingiz Shohista Saidahmedova Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi Muqimiy nomli 10-maktabning 5- sinfini a'lo baholar bilan yakunladi.

Ayni kunlarda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagining hozirjavob a'zosi. Shu bilan birga tikuvchilik, zardo'zlik, pazandalik sirlarini astoydil o'rganyapti. Arab tili bilan jiddiy shug'ullanayapti..

urinmaymiz. Chunki buning iloji yo'q. Bizning geografiya sinf xonamiz ozgina tuzukroq. 6- «V» dagi o'quvchilarning sinf xonalari biznikidan ham yomon. Bordi-yu

Maktabimizda kompyuterlar bor edi. U ham ishlamay qolgan. Chunki uning kerakli narsasini kimdir o'g'irlab ketgan.

Maktabimizga yaqin joyda yangi bino bir necha yillardan beri «qurilayapti». Aytishlaricha



qiz

O'qituvchilarimiz ham eski binodan charchashgan.» Tezroq yangi bino bitsaydi», deyishadi. Ular ham noiloj.

Ustozlarimiz juda talabchan, qattiqqo'l. Biz o'quvchilar ularni juda hurmat qilamiz. Aytganlarini so'zsiz bajaramiz.

### HOVLIMIZ O'ZI OROMGOH

Yozgi ta'tilni o'z uyimda o'tkazishni yaxshi ko'raman.

### SARATON VA SHAHAR BOLALARI HAQIDA SHE'R

Qanday yaxshi bolalar  
Yozda yursa dalada,  
Orom olsa qirg'oqda  
Uylar yasab qumloqda.  
Kezib yursa dalada,  
Cho'milsa sharsharada.  
Ammo ota-onalar  
Yozda sizni bog'larga  
Baland-baland tog'larga  
Yuborolmay qiyinalar.  
Qizgan zinalarda siz  
Toshlarga bag'ir qo'yib  
Sirtingiz qizartasiz  
Saratonda yoz bo'yi.  
Kir zovurlar bo'yida  
Chang o'tlarga yaslanib  
Ta'tilni o'tkazasiz  
Amal-taqal baslanib.



Agar men saylansam hokim bo'lib  
Amal stoliga o'tirsam borib  
Bironta bolada qoldirmay armon  
Oldin chiqarardim qat'iy bir farmon.  
Osing buni, derdim, har bir dahaga,  
Hamma shaharlarda, har mahallaga.

1  
Yozda yurtimizning biron bolasi  
Bironta shaharda turib qolmasin.

2  
Yozda dengizlarga ketsin bolalar,  
Xarjini hukumat o'ziga olar.

3  
Yana shuni ham qayd qilardi farmon:  
Tog'lar ham ularga bo'lsin armug'on.


Xulosa:  
Farmonni olmasa kimki quloqqa  
Olinishi mumkin hatto qamoqqa.

## CHAMANDAGUL

*Atoqli bolalar shoiri Janni Rodari Italiyaning Olenya viloyatida 1920 yilda tug'ilgan. Uning «Quvnoq she'rlar kitobi» 1952yilda bosilib chiqqan. Shoir o'z she'rlarida hozirgi italyan bolalarining hayotini jonlantirib berishga harakat qiladi. She'rlari xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini eslatadi. Ayniqsa bolalar o'rtasida keng tarqalgan lapar, sanoqlar, qo'shiqlarning o'vnoqi ohanglari, qiziq voqealarni tasvirlash usullaridan ustalik bilan foydalanadi. Shoirning bu kitobi va bundan keyingi «Osmondagi va yerdagi she'rlar», «She'rlar poyezdi», «Kasblarning hidi qanaqa?», «Kasblarning rangi qanaqa?» nomli qator to'plamlarida kundalik maishiy mayda-chuyda hodisalardan dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan katta-katta va murakkab xulosalar chiqarilganini kuzatish mumkin. u she'rlardagi xushchaqchaq kulgi, musiqiylik va tanqid o'quvchining yuragini kelajakka ishonch tuyg'ulari bilan boyitadi. Janni Rodari «Chippolinoning boshidan kechirganlari», «Telefonda aytilgan ertaklar», «Jelsomino volg'onchilar mamlakatida» singari juda qiziq ertak-qissalar ham yozganki, ular o'zbek tiliga ham tarjima qilingan va siz, aziz o'quvchilarimiz ularni kutubxonalardan topib o'qishingiz mumkin. Quvida siz Janni Rodari she'rlarining yangi tarjimalari bilan tanishasiz.*

### YOZGA VAZIFA

Shodlikning hajmini aniqlang, deysiz  
Kulgining hajmini aniqlang, deysiz  
Ko'kning yuzi qandoq? - Kim aytar, deysiz...  
Bu qandoq gap bo'ldi, senyor muallim?  
Bunday masalani yecholmaymiz biz.  
Uchovlonni qo'ying, bo'lsak ham sakkiz  
To'rtovlonni qo'ying, bo'lsak ham to'qqiz  
O'n, yigirma emas, bo'lsak ham o'ttiz  
Yecholmadik, qani ayting o'zingiz:  
Necha kilo kelar o'tloqda o'ynash?  
Necha kilometr bir soat o'ynash?  
«Qizishmanglar! - dedi senyor muallim, -  
Bu - oson... Bu - oson ilm...  
Faqat oshiqmanglar javob topishga,  
Muammoni esa tezroq yopishga.  
Chunki u yechilmas qalam-qog'ozda,  
Bunday masalalar yechilar yozda.  
Tez ta'til keladi, ketarsiz toqqa  
Yuksak cho'qqilarga, ko'm-ko'k o'tloqqa.  
O'shanda shodlikning hajmin bilarsiz,  
O'shanda kulgining ja'min yig'arsiz,  
O'shanda bilarsiz osmonning yuzin...  
So'ng hech unutmassiz o'tloqlar isin».



### JANNI RODARI (1920-1980)

#### KASBLARNING RANGI QANAQA?

Har kasbning o'zgacha  
Farqli rangi bor.  
Mana, ko'ring novvoy  
Oppoq xuddi qor.  
Sochlari oq uning,  
Qosh, kiprigi oq.  
Ertalab qushlardan  
Turar oldinroq.  
O'tyoqarning rangi  
Qora-quradir.  
Bo'yoqchining rangi  
Ola-buladir.  
Zavodga kiring-da,  
Ishchiga qarang,  
Uning egni osmon  
Kabi havorang.  
Ishlovchining qo'li  
Moyli, sap-sariq.  
Tekinxo'rning qo'li  
Rangsiz, op-oriq.  
Barmoqlari nozik,  
Belgi yo'q biron,  
Na moy yuqi boru  
Na qurum-qatron.

Terisi oq-ku, deb kulmang bu ora,  
Ularning ishlari juda qop-qora.



#### KAMALAK


Birdan aynidi havo,  
Shitirlay ketdi yomg'ir.  
Yo'lda qiz bo'ldi paydo  
O'ng qo'lida qo'lchodir.

Qo'lchodiri kattaroq,  
Kamalakday rangorang,  
Boshga tutib qizaloq  
Boradi alpang-talpan.

Qo'lchodir quroqlari  
Gulbarglarga o'xshardi.  
Kamalakdan odamlar  
Zavqlanib kulishardi.

Ruschadan Miraziz A'zam tarjimasi.

# ILONLAR OLAMIGA SAYOHAT




## "ITIM EMAS, ILONIM UYIMNI QO'RIQLAYAPTI!"

Oxirgi 25 yil ichida dunyoning turli mamlakatlarida, xususan Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Singapur, Tailand, Kanada, Keniya, Braziliya va Avstraliya kabi davlatlarda ilonlar, sherlar, yo'lbarslar, timsohlar, qoplonlar, fillar, delfinlar, maymunlar xuddi mushuk, kuchuklar qatori uy hayvoni sifatida boqilmoqda. Masalan, hozirda AQSHning Kaliforniya shtatidagi odamlar uylarida boqilayotgan ilonlar soni 80 mingdan ortib ketdi.

AQSHdagi o'z uylarida ilon boquvchi odamlarning aytishicha, ilonlar eng yaxshi uy hayvoni emish, chunki ularni ovqatsiz haftalab uyda qoldirib ketish mumkin ekan. Ko'pchilik AQSHlik ilon boquvchilar o'z ilonlarini ko'z-ko'z qilish uchun yoki ulardan ajralgisi kelmay, ularni hatto to'yga, mehmondorchilikka va uzoq safarlarga ham o'zlari bilan olib bormoqdalar.

Hindistonlik ilon boquvchi millioner Namdev Shrivastavning aytishicha, u ishga ketganida uyidagi tilla, olmos va pullarini, umuman barcha boyligiyu, uyini shu ilonga topshirib ketarkan. Ya'ni, Namdev ilonni it o'rnida uyni qorovullash uchun boqadi.

Namdevning uyiga boylik istab, bir necha bor o'g'rilar tushishgan ekan. Lekin har gal xonadon ostonasidagi dahshatli, ulkan, tili uzun, ko'zi sovuq, zaharli ilonlarga duch kelib, jon holatda tumtaraqay qochishgan ekan. Ana sizga ilonning foydasi.



Ilon zahri - ming dardga davo. Ko'pchilik haqiqiy yoqda tursin, so'zni eshitishi seskanib ilonlarning tabiat uchun juda taraflari Masalan, zahridan sohasida darmon tayyorlashda keng foydalaniladi. Shuningdek, ilonlar zararkunanda kemiruvchilarni yeb kun kechiradilar. Buning natijasida hayvonlar va insonlar orasida kasalliklar kamayadi, atrof-muhit toza bo'lib, tabiat va jonivorlar sog'lom bo'ladi.

Hozirgi kunda ilon zahridan olingan dorilardan bronxial astma, surunkali poliartit, asab kasalliklari, bod, quyonchiq kabi xastaliklarni davolashda juda keng foydalanilmoqda.

Vrachlarning aytishicha, ilon chaqqan kishining organizmiga ilon zahridan tayyorlangan zardob yuborib davolanadi, chunki bunday zardob ilon zahridan ta'sirini qirqadi.

## ILON GO'SHTINI SEVIB YEYDIGANLAR...

Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikadagi ko'plab xalqlar ilon go'shtidan qilingan taomlarni deyarli har kun sevib iste'mol qiladilar. Masalan, Osiyoda xitoyliklar,

koreyslar, yaponlar, hindlar, tainlandliklar ilon go'shtidan xilma-xil "lazzatli" taomlar tayyorlashadi.

Xitoyda tansiq, mazali taom deganda, faqat ilon go'shtini tushunadilar. Xitoyda, Koreyada va Yaponiyada ilon go'shtidan tansiq ovqat qiladigan maxsus restoran va oshxonalar bor. Syanganning (Xitoy) ko'plab restoranlari tansiq ovqat - ilon sho'rvasi bilan mashhur. Syangan restoranlariga har oyda 700 ming ilon tutib keltiriladi. Ushbu restoran hovlisida turli qafaslarda ilonlar boqib qo'yilgan. Ochiqib kelgan xo'randalar qafasidagi o'zlari xohlagan ilonni tanlab, uni pishirishga buyuradilar. Oshpazlar esa shu tirik ilonni so'yib, darhol pishirib beradilar.

Yaponiyaning poytaxti Tokioda ham ko'plab restoranlar asosan ilon kabobi va sho'rvasini pishiradilar. Tokioning ilonli taomlarini yeyish uchun butun dunyodan "ilonxo'r ochofatlar" kelishadi. Tokioning ilonli taomlariga talab juda katta. Shuning uchun ham restoranlar kecha-yu-kunduz - 24 soat ishlaydi. Tokio restoranlarida ham qafaslarda turli ilonlar boqiladi. Ba'zida xo'randalar o'zlari bilan birga tirik ilon keltirib, oshpazlarga pishirtiradilar. Tokiodagi ilon go'shtidan qilingan taomlarning eng arzoni 10 dollar. Yaponlarning aytishicha, ilon go'shtini yeyish sog'liq uchun juda foydali ekan hamda inson umrini uzaytirarkan. Xuddi biz palovni tez-tez yeganimizdek, yaponlar, koreyslar va xitoyliklar ilon go'shtini shunday tez-tez iste'mol qiladilar, ya'ni deyarli har kuni.

Shunday qilib, ilon yeyishdan oldin uning zahri olish oshpazlarning esidan chiqib qolmasin. Ilonxo'r do'stlarimizga nima ham derdik? Faqat bitta gap, "Ishtahangiz karnay bo'lsin yoki yoqimli ishtaha!"

**Shohruh KARIMBEKOV tayyorladi.**



edim. U bilan tanishganimdan so'ng "TONG YULDUZI" gazetasiga intervyu berishini so'raganimda bajonidil rozi bo'ldi.

Firdavs o'zini yaqindan tanishtirganida bolalarni judayam yaxshi ko'rishini ularni hurmat qilishini aytdi. Pazletdinov Firdavs Sayfutdinovich 1980 yilda tug'ilgan. U 9- maktabda o'qib keyin "Interxaus"da o'qigan. Hozir esa iqtisodiyot universitetining 3- kurs talabasi. Keling yaxshisi u bilan bo'lgan suhbatimni sizga ham havola qilay.

**-Firdavs san'at olamiga kirib kelishingizga kim sababchi**

Kim ko'rmagan deysiz bu chiroyli kulguyu, chehrani. Ha, men "Firdavs-N" guruhi solisti Firdavs kulgisi haqida gapiryapman. Firdavs bilan men tasodifan uyga qaytayotganimda uchrashib qoldim. Shu payt ko'zlarimga ishonmas

FIRDAVS - YANA BIZ BILAN

bo'lgan? Men yoshligimdan musiqani juda sevdim. Mana shu qiziqishim meni san'at olamiga olib keldi.

**-Guruhingiz qachon tashkil bo'lgan?**  
-Guruhimiz 1996 yil tashkil topdi. Ilgari biz rep qo'shiqlarini ijro qilar edik. Guruhimizda men, Ravshan, Dilmurod va Sabina edik. Hozirga kelib uslubimizni o'zgartirdik va guruhimizda ham o'zgarishlar bo'ldi, ya'ni guruhda men, Ravshan va Aida ismli qiz keldi.

**-Yakkaxon konsert berish niyatlaringiz bormi, bo'lsa qachon**



bo'ladi?

-Biz o'zi may oylariga rejalashtirgan edik, lekin ulgura olmadik. Xudo xohlasa shu yil konsertimiz bo'ladi.

**-Firdavs, keling yoshligingiz haqida ham gapirib bering. Bu bolajonlar uchun juda ham qiziq.**

-Yoshligimda judayam s h o ' x

bo'lganman, bechora oyimni bir oz ham tindirmas ekanman.

Maktabda to'polon qilganimdan ota-onamni chaqirtirishsa men faqat onamni chaqirib kelar edim. Men onamni juda hurmat qilaman va ularga katta r a h m a t l a r aytaman.

**-Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?**

-Bo'sh vaqtim juda kam bo'ladi. Shunda ham bo'lib qolsa uyimda dam olishni yoqtiraman.

**-Hayvonlarni yoqtirasizmi?**

-Judayam. Ko'proq kuchuklarni yoqtiraman.

**-Prodyusseringiz kim?**

-Mening asosiy prodyusserim onamlar. U l a r menga nafaqat prodyusser balki bosh homiymizdirlar.

**-Qaysi taomlarni yoqtirasiz?**

-Eng yoqtirganim eron va o'zbek taomlari.

**-Gastrol safarlarida bo'lganmisiz?**

-Guruhimiz bilan bo'lmaganmiz, o'zim Eronda, Xitoyda bo'lganman.

**-Yaqin do'stlaringiz bormi?**

-Ha yaqin do'stlarim ko'p. Lekin men o'zimga eng yaqin do'st - onam deb bilaman.

**-Firdavs "TONG YULDUZI" gazetasiga tilaklaringiz?**

- "TONG YULDUZI" gazetasiga doimo omad tilayman. Bolajonlarni xursad qilib tolshmasin. Biz kabi san'atkorlar bilan shunaqa ko'p-ko'p uchrashuvlar bo'lib tursin.

**-Suhbatingiz uchun katta rahmat.**

**Anastasiya Krasnoshyokova suhbatlashdi.**



Endigina to'rt yoshga kirgan Dilshodjon ko'chada o'z tengqurlari bilan mazza qilib o'ynardi. O'yin endi avjiga chiqqan payt. Hamma bolalar - kim o'zining mashinasida, kimdir belkurakchasi, chelakchasi, traktorchasi bilan astoydil ishlayapti. Bolakaylar birgalikda katta va chiroyli imorat qurishayapti. Birovi qum tashigan, boshqasi tosh, yana birovi g'ishtchalarni qolipga solish bilan band. Shu payt bolakaylardan biri:

-Dilshod, sen ham yangi mashinangni olib kel, qum tashiysan. Ko'ryapsan-ku, Sarvar bir o'zi tashib yetkaza olmayapti,- dedi bilag'onlik bilan.

Dilshod uch kun oldin adasi sovg'a qilgan yangi KAMAZ mashinachasini o'rtoqlariga ko'rsatib maqtangandi. Bugun esa «Kir bo'lib qolmasin» deya o'ynashga olib chiqmagan edi O'rtoq'ining buyrug'idan so'ng noiloj uyiga yugurib ketdi. Eshikdan kirarkan:

-Oyijon yangi mashinam qayerda, olib bering, o'ynamoqchiman,- dedi hovliqib.

Biroq oyisining parishon holda, xomush ko'zlarida yosh qalqib turganini ko'rdi-yu, mashinasini ham unutilib ma'yus tortdi. Murg'ak qalbida oyisiga achinish paydo bo'ldi. Sekin kelib oyisining bo'ynidan quchib so'radi.

## BUVIYONIMNING BOSHINI SILAB

(hikoya)

-Sizni kim xafa qildi?

-Hech kim, - deya oyisi kulimsiradi.

So'ng Dilshodning boshini silab:

-Bor, o'g'lim o'ynayver. Mashinang ana burchakda turibdi, ola qol, -dedi.

Biroq Dilshodjon yana oyisini so'roqqa tutdi.

-Oyijon, nega yig'ladingiz? Mashinani siz olaqoling, faqat yig'lamang, - deya oyisini ovuta boshladi.

Uning gapiga oyisi kulib dedi:

-Men mashina o'ynamayman. O'zimning oyimni - buvijoningni sog'indim. Shuning uchun ularni eslab o'tirgan edim, - dedi.

Oyisining oyisi uzoqda - boshqa shaharda yashashini har zamonda samoletda, poyezd yoki avtobusda borib ko'rib kelishlarini Dilshod bilardi. Shularni eslab yana so'radi.

-Oyijon, nega sizning oyingiz sizni tashlab uzoqqa ketib qolganlar?

Oyisi yana kulib:

-Buving ketib qolmaganlar, aksincha adang

meni bu yerga olib kelganlar. Nega, nega deya surishtiraverma. Katta bo'lganingda hammasini o'zing bilib olasan. Hozir esa, o'rtoqlaring kutib qolishdi, borib ular bilan o'ynayver, bu haqida keyin gaplashamiz, - dedi.

Biroq Dilshodjon ko'chaga ketish o'rniga «Men hozir» dedi-yu, uyga yugurib kirib ketdi. Bir ozdan so'ng qo'lida konvert bilan qaytib chiqdi. Yelimgan konvertni oyisiga tutqazib:

-Oyijon, mana sizga buvijonimdan xat keldi, -dedi. U ba'zida buvisidan shunday konvertda xat kelishini, oyisi o'qib xursand bo'lishini bilardi.

Oyisi berkitilgan, lekin ustida hech qanday yozuvi yo'q konvertni olarkan qiziqib ochdi. Ichidan to'rt buklangan, lekin hech narsa yozilmagan qog'ozni olib u yoq bu yog'iga qaradi. So'ng savol nazarida Dilshodga qaradi. Dilshodjon oyisi nima demoqchi ekanligini tushinib, darhol hozirjavoblik bilan.

-Oyijon o'qing, buvijonim bu xatni ichlarida

**Ilk qadam**  
yozganlar. Siz ham ovoz chiqarmasdan izingizda o'qing. Keyin menga ham nima deganlarini aytasiz,- dedi ko'zlarini pirpiratib.

Uning gapini eshitgan oyisi quvnoqlik bilan rosa kuldi, o'g'lini quchib:

-Voy aylanay o'zimning bilag'on bolamdan, - dedi. So'ng xatni ichida o'qigan bo'lib Dilshodjonga dedi.

-Buvijoning sog'-salomat ekanlar. Seni yaxshi bola bo'lib yuribdimi? Meni nomimdan o'pib qo'y deptilar, - deya uni o'pib qo'ydi.

Ona-bola ikkalasi ham bu xatdan rosa xursand bo'lishdi.

So'ng oyisi kulib:

-Mayli, o'g'lim, endi sen o'rtoqlarig bilan o'ynab kela qol. Mana ko'rding, xursand bo'ldim. Endi hech qachon xafa bo'lmayman. Kechqurun buvingga qo'ng'iroq qilib, xatlarini olganimizni aytaman, - dedi.

Dilshodjon xursand holda mashinasini olib, ko'chaga chiqib ketdi.

Oyisining esa farzandining qiligidan ko'ngli to'ldi.

**Timur RO'ZIMATOV.**



Farruh buvijonisini juda yaxshi ko'radi. Yo'q, dadasini katta qilganlari uchungina emas, o'zi buvisi xo'p ajoyiblar.


Ko'p buvilardak bilmagan narsasi yo'q. Buvi emas, naq xazinaning o'zi. Har bir narsadan hikmat keltirib chiqaradi. Farruhga hatto o'rtoqlari havas qilishadi. Agar buvisi biror yig'inga borgudek bo'lsa, izzat-ikrom qilishib to'rga o'tqazishadi.

Farruh buvisini boshiga yopingan oppoq ro'moli, qirovdek oqargan sochlari, nuroniy yuzlariga qarab turib ertaklardagi sehri, dono momolarga o'xshatadi.

Bir kuni buvisi Farruhdan astoydil ranjidi. Hatto gaplashmay qo'ydi. Bunga bir voqea sababchi bo'ldi. Mahallalarida Mahmud ismli yoshi kattaroq bir bola yashaydi. U yolg'iz turadi. O'zi soqov, gung. Kuni bilan mahalla-ko'yning qo'y-molini boqadi. Mehnati evaziga kim nima bersa, shu bilan tirikchiligini o'tkazadi. Mahalla bolalarining dastidan u bechoraga kun yo'q. Mahmud - soqov. Mahmud - jinni deb masxaralab qochishadi. Mahmud bolalarni quvlaydi, yetolmaydi. Uning quvganidan zavqlangan bolalar uzoq-uzoqlarga borib olib, qo'llarini og'izlariga kuvacha qilib olishadi-da, uni masxaralab turli qiliqlar qilishadi. Farruh ham bolalar bilan zerikkuncha Mahmudni quvlatib, charchab uyiga bir ahvolda kirib keladi. Uni ko'rib avval ayasining, so'ng tasbeh o'girib o'tirgan nuroniy buvijonisining jahllari chiqadi. «Hechqisi yo'q» deydi o'ziga-o'zi. Ularning koyishlariga parvo qilmay, so'ng o'zini kechki ovqatga uradi. Shunday kunlarning birida, maktabdan

qaytayotgan bir to'p og'aynilari bilan Mahmudni quvlatmoqchi bo'lishdi. Mahmud odatdagidek ariqning bo'yida bir to'da qo'yni haydab tayoq ushlaganicha asta kelardi. Uning qo'ylari egalaridan qabul qilib olib, qachon o'tlatib ulgurganini, dala tomonga haydab ketganini Farruhdan qaydan bilsin?!

Har holda tush mahali ular maktabdan qaytar chog'ida Mahmud ham arzimagan haq evaziga hayvonlarni o'tlatib uyga qaytar edi. Sal o'tmay, o'z dardi, o'z uyi bilan bo'lgan Mahmud bolalarning niyatini payqab ularga mung'ayib qaradi. Bu qarashda yalinish, iltijo mujassam edi. Ammo bolalarni uning holati qiziqtirmasdi, kun bo'yi zerikkan bolalarning xayoli dars bilan o'yinda edi. Baqirib-chaqirib Mahmudni quvlashga qistayotgan bolalarga negadir Mahmud parvo ham qilmadi. Bolalar hayron, salga jahli chiqib ularning ortidan lo'killab chopadigan bu tentakning negadir bugun quvishga hushi yo'q edi. Shu payt bolalardan biri yeb turgan olma po'chog'ini Mahmudning basharasiga mo'ljallab otdi. Mahmud yuzini changalladi. Xo'rlikka chidolmay, bolalarlarga g'azab bilan qaradi, keyin shunday ayanchli qichqirdiki, bolalar tum-taraqay qochib qolishdi. Bu holni ko'cha muyulishida bir to'p ayollar bilan izdixomdan qaytayotgan Farruhning buvisi ham ko'rdi.



## Ustozlaringiz ijodi

birovlarining mehnatini qilib tirikchilik qiladi.

Uning turar joyi mahalla chetida. Bir xonali uy, kir, uvadaga o'xshash ko'rpatoshak - uning bor bisoti shular edi. Kechlatib Farruhning yolg'iz o'zi Mahmudning uyiga yaqinlashdi. Hujra eshigi qiya ochiq. Mahmud ko'rpachasi ustida bir nuqtaga termulgan o'tirardi. Birdan uning yelkari silkina boshladi. U yig'lar edi. Yig'i orasida goh qo'llarini tepaga uzatib, allakimga yolvorar, kimnidir yonib o'ksib-o'ksib yig'lar edi. Uning yig'isi shunday ayanchli ediki, boyadan beri qo'rqib turgan Farruhning ham o'pkasi to'lib, tomog'iga bir

narsa tiqilgandek bo'ldi. Shartta orqasiga o'girilib, uyi tomon chopib ketdi. Farruh ko'rganlarini buvisiga aytib berdi. - Bolajonim, - Farruhni quchoqlab xo'rsinib dedi buvisi. Unga oson emas, senlar uning g'amiga-g'am qo'shasanlar. Uning yolg'izligi yetmaganday mahalla bolalariga masxara bo'layotgani alam qilmaydi-mi? U har holda topgan nonini halolab yeydi. Shu ahvolda odamlarga nafi tegadi. Birovga zarari yo'q. Sen yaxshisi uning ahvolidan xabar ol. Ma, mana bu non bilan bir kosa ovqatni unga olib borib ber. Farruh cho'chib tushdi.

-Yo'q, yo'q, yolg'iz borgani qo'rqaman.

Boshini sarak-sarak qilib biroz turdi, so'ng uyiga kirib ketdi. Shu kundan boshlab, buvisi Farruhga gapirmay qo'ydi. Uyda ayasi, dadasi ko'pincha ishda, ular bilan kechqurun ko'rishadi. Farruhning asosiy suhbatdoshi buvisi bo'lgani uchun uning gapirmay qo'ygani juda ham alam qildi. Farruh o'zicha gap qo'shsa, ters burilib oladi.

# ILIQLIK

Ayasiga, buvimga ayting, nega unaqa qilyaptilar desa, o'zing ayt, biron-bir qiliq chiqarib ko'ngillarini qoldirgandirsan-da, dedi. Bir kuni buvisining o'zi Farruhni yoniga chorlab qoldi. Farruh sevinib ketdi «Hayriyatey, bor ekanlar-ku».

-Sen Mahmudni yaxshi bilansanmi? - so'radi buvisi.

-Albatta. U - soqov, jinni-ku, kelib-kelib shu gapni topdingizmi degandek ensasi qotib javob qildi Farruh.

-Sen uni yolg'iz kuzat, - uqtirdi buvisi.

-Darhaqiqat, Mahmud uyda ko'proq kechqurunlari bo'ladi. Boshqa paytda ko'chada

**Umida YUSUPOVA,**  
Buloqboshi tumani,  
«Ijodkor» o'qiruvchi.

Abduxay Nosirov.

## BOFIMIZ-DO'STLIK BOFI

Bag'rimiz-do'stlik bog'i,  
Oftob kabi quchog'i  
Tongdan yashnab ketadi,  
Hamma yayrab ketadi.  
O'yin tushar o'rtoqlar,  
Qarsak chalar yaproqlar.  
Qo'shiqlarning yangrog'i,  
Qo'shiqlarning tuprog'i.  
Davrani qizitadi.  
Davrani bezatadi  
Raqqosalar, kuychilar  
Dutorchilar, naychilar.  
Chiqib to'rga o'rtaga,  
Bo'linib besh-to'rttaga  
San'atini ko'rsatar.  
Ammo, do'stni turtsalar,  
Masxaralab kulsa kim,  
Yo mushtlashib qolsa kim,  
Bo'ysinadi qarorga,  
Borib turar devorga.

## KAPALAKLAR O'YNASIN

Bog'chamizning gulshani,  
Bog'imizning gulxani,  
Quyosh kabi lovullar,  
Gul barglari shovullar  
Kapalaklar ukparday,  
Qanotlari zar parday.  
Gul yuziga qo'nishib,  
Gul yuzida tinishib,  
Emib issiq mehrini  
Izlashar gul sehrini.  
Kapalaklar o'ynasin.  
Ko'rib ko'zlar quvnasin,  
Shu boisdan tutmaymiz,  
Ozor berib o'tmaymiz.

QUSHLAR UCHIB  
KELDILAR

Qushlar uchib keldilar,  
Yana ko'chib keldilar...  
Osmonimiz yorishib,  
Kun seliga qorishib,  
Kamalakdek turlandi,  
Bahor kelib nurlandi.  
Bodrab chiqdi lolalar,  
To'lib ketdi dalalar  
Qushlarning sayrog'iga.  
Daraxtlar butog'iga  
Inlar ilib qo'rganmiz,  
Baland qilib qo'rganmiz.  
Ko'p yelibsiz qushlarim,  
Xush kelibsiz qushlarim.  
Tinchlik bog'i-bog'imiz,  
Tinchlik-yuksak tog'imiz.  
Bog'imizda yayrangiz,  
Uchib, yonib sayrangiz.

## Ochil dasturxon



etilgan bemorlar ham sabzidan yoki go'sht iste'mol qilish mumkin bo'lmagan be'morlar guruchidan tanovul qilishi mumkin. Palovning shuningdek, sarimsoq palov, behili palov, kovatogli palov, do'lmali palov, qazili palov, po'stdumba palov, no'xatli palov, to'y oshi kabi turlari borki, ularning har biri o'ziga xos ko'rinishga va mazaga egaligi bilan ajralib turadi.

Anvar MADRAHIMOV.

(Davomi, Boshi o'tgan sonlarida)  
OZODLIK VA  
ADOLAT YO'LIDA

Ilyosxo'ja yurt hukmdori bo'lgach, joylarga odamlarni talash va zo'rvonlik qilishga keng izn berdi. Birgina Samarqandda bir kechani o'zida to'rt yuz qizni o'g'irlab ketgan jetlar qarshilik ko'rsatgan kishilarning barchasini qilichdan o'tkazishdi. Ularni insof-adolatga chaqirgan ulamolarni esa zindonlarga tashlashdi. Bu ham yetmagandek Ilyosxo'janing buyrug'i bilan Muhammad Payg'ambar avlodlaridan sanalmish sayyidlardan yetmish kishi isyonga undashda ayblanib, zindonga qamaldi. Ular tutun bilan bo'g'ib o'ldirishga hukm qilindi.

Vazir Temurbek oldida mushkul muammo ko'ndalang bo'ldi. Mansab-martabani saqlab jim turishmi yo bosqinchilarga qarshi xalqni qo'zg'atish? Temurbek hech ikkilanmay ikkinchi yo'lni tanladi. Uning sodiq ittifoqchilari- Naqshbandiyalar tariqati a'zolari bo'lgan darveshlar joylarda qasoskor to'dalarni tashkil qilib jetlarga qirg'in-barot tayyorlashdi. Samarqand ahli Temurbekka noma yo'llashdi.

Choryorlar ibratiga amal qilib, biz ulamolar sarbozlar va xalq,- deb yozilgan edi unda,- siz kuch-qudratning porloq yulduziga va da beramizki, musulmonlar mol-mulki tugul ularning shonu-sharafi va nomusiga tajovuz qilayotgan ochko'z zo'rvonlar bo'lmish jetlarni qirish, haydash va yo'qotish uchun borimizni va hayotimizni ham ayamaymiz. Bu qasamni buzganlar Olloh qahriga uchrasin.

Temurbek bu nomaga javoban tantanali va da berdi.


- Sayyidlar himoyasi uchun jonimni ham ayamayman. Qarorimni ahli-jamoaga ma'lum qiling. Jihodga tayyor bo'lishsin. Darveshlar Samarqandda va boshqa viloyatlarda odamlarni qo'zg'olonga da'vat qilishdi. Xalq ko'tarilib jetlarga xujum boshlandi. Ilyosxo'ja nima qilishini bilmay dovdirab qoldi.

Qo'zg'olon alangasi butun o'lkada porlab jetlar uchun sichqonning ini ming tanga bo'ldi.

Zindonlardan

O'zbek pazandachiligi qadim tarixga ega. Ibtidoiy davrlardayoq odamlar o'zlari uchun yegulik narsalarni tabiatdan yakkama-yakka o'ldirib ko'ra ko'proq birgalashib ishlab chiqarishni afzal ko'rganlar. Bora-bora qabilalar birgalashib ovchilik, chorvachilik dehqonchilik qilganlar, pazandachilik ham shunga mos ravishda rivojlanib borgan.

O'zbekistonning geografik va iqlim sharoitlariga mos kelgan qishloq xo'jaligi, sabzavotlar, meva va poliz ekinlari, chorvachilik mahsulotlari milliy taomnomamizning boyishiga asosiy omillardan bo'lgan, desak xato qilmaymiz. O'zbek pazandachiligining



## YETTI IQLIM HUKMDORI

ozod qilingan sayyidlar va boshqa ulamolar Temurbekni duo qilishdi. Xalq og'zida Temurbek, dilida ham, tilida ham Temurbek. U bir kunda xalq qahramoniga aylandi.

O'sha kunlarning birida Temurbekning tushiga Rasululloh kirdi.

-Sen mening avlodlarimdan yetmish kishini tutqunlikdan qutqarding. Shu jasorat uchun mukofotlanasan. Olloh mo'jizakoridir. Endi sening yetmish avlodning hokim bo'ladi.


## ISLOM QILICHI

Darveshlar Temurbekka Yettisuvdan To'qlug'-Temur katta qo'shin bilan o'g'liga yordam uchun yo'lga chiqqanini xabar qilishdi. Pir unga vaqtincha Xorazm tomonga chekinib, kuch to'plashni maslahat berdi. Naqshbandiyalar tariqatining qanday mo'jizalarga qodirligini Temurbek yaxshi bilardi. U o'zining behisob jangu jadallardan iborat kurash yo'lida Naqshbandiyalarning ko'p xolis hizmatlarini ko'rdi. Tariqat ko'zga ko'rinmas himoya xalqasi bilan o'zi katta umid bog'lagan sarkardani o'rab uning hayotini ko'z-qorachig'idek asrar edi. Naqshbandiyalar sidqidildan xizmat qilgan buyuk g'oya- ozodlik va adolat uchun kurash butun xalqning shoriga aylanib, xuddi shu Temurbekka oqibat natijasida g'alaba keltirganini hech bir solnomachi, hech bir muarrih tilga olmagan.

Jetlar bilan hayot-mamot jangiga otlangan Temurbek sodiq navkarlari bilan Amudaryo bo'yida qo'r tashladi. Unga amir Husayn ham kelib qo'shildi. Jetlar bilan jang ikki

ravnaqiga ana shu sohalarda yetishtirilayotgan masalliqlar serxilligi va tayyorlash uslubiga hissa qo'shib kelmoqda. Ayni vaqtda o'zbek pazandachiligini yuksak san'at darajasiga ko'tarishda pazandalar bilan bir qatorda uy bekalari, dehqonlar, chorvadorlar, tabiblar, havaskor pazandalarning ham xizmatlari katta.

O'zbek pazandaligida palovning yuzdan ko'proq xili, kaboblarning o'ttizga yaqin turi, suyuq ovqat va sho'rvalarning yetmish-sakson xili mavjud. Respublikamizning turli viloyatlarida ayni bir taom bir necha usullarda tayyorlanadi yoki har bir viloyatga xos bo'lgan taomlar majmuasi yaratilgan. Jumladan Toshkentda norin, ho'l norin, moshkichiri, qaziqarta, varaqi somsa, hasip kabilar. Andijon va Namangan viloyatlarida mastava, go'sht gijda, Andijon mantisi, sholg'om sho'rva, no'xat xo'rak va boshqalar. Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon taraflarida qovurma palov,



## O'ZBEK TAOMLARI

devzira palov, Qo'qon kabobi, kalla-pochcha, go'ja oshi, oshqovoq somsa kabi taomlar mashhur. Samarqand va Buxoroda Samarqandcha palov, sofoshi palov, qaymoqli chuchvara, Buxorocho mayizli palov, tuxumbarak, shirmoy patir va boshqalar tansiqdir. Qashqadaryo va Surxondaryoda tandir barra, qaynatma sho'rva, yaxna go'sht, cho'pon kabob, qovurma palov, shopirma taomlar. Xorazm va Qoraqalpog'istonda go'mma, qatlama patir, ijjon kabob, shivit oshi, yumurta barak, qiymali shirguruch, beshmarmog

## Hamdam SODIQOV

sarkardaning turkmanlar yurtiga chekinishi bilan yakunlandi. Oltmish navkar bilan qolgan Temurbek va Husayn turkman sardori Alibek buyrug'iga ko'ra hibsga olindi.

Kamoloy- O'ljoy eri bilan zindonga tashlandi. 1362 yilda ro'y bergan bu voqea Temurbek umriga xotima bo'lishi mumkin edi. Ammo xalq va uning timsolidagi Naqshbandiyalar jet bosqinchilariga qarshi turadigan sarkardaga nisbatan xoinona ish tutgan Xorazmshoh va turkman sultonini la'natlashdi va musulmonlarni Temurbekni ozod qilishga da'vat qilishdi.

Bu yo'lda darveshlar jonbozlik ko'rsatib, ta'sirchan vositalarni ishga solishdi.

Temurbekning turkman zindonidan qay tariqa ozod bo'lgani haqida turli afsona va rivoyatlar yuradi. G'oyibdan zindonga yarqiragan shamshir tushibdi. Temurbek soqchilarni gumdon qilib, sulton qarorgohiga bostirib kiribdi. Yana bir rivoyatga ko'ra turkman sultoni Alibek akasidan xat olibdi unda Temurbek ozod qilinmasa turkman eli ofatga uchrashi, sultonning esa yuzi qorayib, xoru zor bo'lishi yozilgan. Alibek cho'chib Temurbekni ozod qilibdi. Xullas, 62 kunlik tutqunlikdan so'ng Temurbek Seistonda paydo bo'ladi. Shu joyda bir qal'ani olish vaqtida o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yarador bo'ladi. Bu jarohatdan so'ng u umrbod oqsoqlanib qoladi. Temurlang nomi bilan u 29 yoshida olamga mashhur bo'ladi.

1363 yilda Temurbek va amir Husayn qo'shinlari jetlar bilan yana jangga kiradi. Ammo kuchlar teng emas. Ikki sarkarda orqaga chekinishadi. Jetlar hotirjamlikka berilib, hordiq chiqarishga tushganda Temurbek to'satdan qayta hujum boshlaydi. Esankirab qolgan jetlar jiddiy qarshilik ko'rsatmay qochishga tushadi. To'qlug'-Temur Mo'g'uliston tomon yo'l olganda to'satdan o'lib qoladi. Darveshlar uni Olloh qahriga uchradi, deya talqin qilishdi. Jetlarni urish, o'ldirish, yengish mumkin. Parvardigorning o'zi Temurbekka madadkor! U Olloh qilichi, islom qilichi!

(Davomi bor).


kabi taomlar mashhur.

O'zbek taomlari ichida palov alohida ahamiyatga ega. U milliy pazandachilikning shoh taomi bo'lib hisoblanadi. O'zbek taomlari tarixini uzoq o'rgangan olim Karim Mahmudov O'zbekistonda palovning xili 200 dan ortiqligini aniqlagan. Palov yosh go'daklardan tortib qariyalargacha yesa bo'ladigan ovqatdir.

## Qovurma palov

palovning qadimiy va asosiy varianti bo'lib, Farg'ona vodiysi va Toshkentda saqlanib qolgan. Ko'pchilik bu xilni «Choyxona palov» deb ham ataydi.

Ivitma palov - guruchi ivitilib qovurmay pishirilgani uchun parhezli xosiyatlari bor. Samarqandcha palov yolg'iz Samarqand va Buxoroda tayyorlanadi. Xuddi ivitma palovdek sabzini ko'p solib qovurmay pishirilishi va dasturxonga tortishda guruchga aralashirmay berilishi bilan parhezlik xosiyatlarini kasb etadi. Bu taomni palov iste'mol qilish man



## BIZNING TO'GARAK



«Yosh qalamkashlar» to'garagining navbatdagi mehmoni- shoir, tarjimon, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi Muhiddin Omon bo'ladi. Avvalq tahririyatga xush kelibsizlar: deya so'z boshladi shoir. «Tong yulduzi» gazetasida qanchadan-qancha ulug' insonlarning ilk ijod namunalari chop etilmadi deysiz. Sizlarda ham ijodga qiziqish bor. Bu qiziqishni so'ndirmaslik uchun o'z ustingizda puxta ishlashingiz kerak.


She'r-so'z san'atidir. Shoirda so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Buning uchun ko'proq kitob o'qishingiz zarur bo'ladi. dedilar. Shoir to'garak a'zolarining she'r va maqolalarini tinglar ekan, ular uchun kerakli fikrlarni aytdilar. O'z navbatida bolajonlar ham o'z qiziqtirgan savollariga javob oldilar. To'garak juda jonli va qiziqarli o'tdi. Ayniqsa shoir Muhiddin Omon tomonidan aytilgan topishmoq va tez aytishlar davraga yanada quvnoqlik va erkinlik baxsh etdi.




Muhiddin Omon

## TOPISHMOQLAR

Qo'ng'ir boshim ichida  
Yashiringan alanga.  
Ishlatmangiz behuda  
Bermangiz yosh-yalangga.



G'ildiragim aylana,  
Aylangani aylangan.  
Yuragimning tomiri  
Oyog'ingga boylangan.



Oltmishta sirg'asi bor  
Shiqirlaydi, titraydi.  
Yuziga ming shapaloq  
Ursang pisand etmaydi.

Olachipor tulporim  
Egilolmas oldiga.  
Yemish bersam saharda  
Tunda borar qorniga.



## YAXSHILIK

Yaxshilik qo'lingdan kelmasa, yomonlik ham qilma, deyishadi. Bu bejiz emas. Chunki har bir inson bir-biriga yaxshilik qilmog'i zarur.

Ayrimlar yaxshilikka ham yomonlik bilan javob qaytarishadi. Bu esa hech kimga yoqmaydi. Biz bolalar hamisha yaxshilik ko'chalaridan yurishimiz, har bir ishimiz faqat yaxshilik bo'lishi kerak.

Yaxshilik haqida ko'plab shoirlar she'rlar yozgan. Men ham bu mavzuda she'r yozdim.

**Yaxshilik qil doimo**  
**O'zingga qaytar shunda.**  
**Yomonlik qilma zinhor**  
**Omad tila shu vaqtda.**  
**Yomonlikni yengib sen**  
**Yaxshilikka intilgin.**  
**Nochorga bergil yordam**  
**Doimo madad bo'lgin.**

Dilyora ERKINOVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
45- maktabning 5- sinf o'quvchisi.



Ushbu rasmni 273-litsey maktabning 4-  
«G» sinf o'quvchisi Dilmurod PO'LATOV  
«Bolalar tog' yon bag'rida» deb  
nomlabdi.

## QUVONCH YOSHI

Poytaxtimizning Hamza tumanida nogiron bolalar uchun katta bayram bo'lib o'tdi. Bayramni klub raisi Dilbar opa Hidoyatova kirish so'zi bilan ochdi va bolalarga salomatlik tiladi. Ular uchun chiroyli dasturxon yozildi, muzqaymoqlar tortildi. Ayniqsa xonanda Ravshan Namozovning qo'shiqlariga bolalar mazza qilib raqsga tushdilar.

Shu bilan birga germaniyalik ishbiarmonlar ham bolalarning quvonchiga sherik bo'ldilar. Ular nogiron bolalar uchun o'z sovg'alari bilan kelishgan ekan.

O'tkazilgan bayram barcha ishtirokchilarga birdek yoqdi. Ayniqsa bolalarining quvonayotganini kuzatgan ot-onalar ko'zlarida quvonch yoshi qalqidi.

Yulduz ISANOVA,  
Poytaxtimizning  
307- maktab o'quvchisi.

## O'ZBEGIM

O'zbekimning navosi  
Tengi yo'qdir sadosi.  
Senga olam gul bo'lsin  
Go'zal jannat havosi.

Men senga hamroh bo'lay  
Sayragan bulbul bo'lay.  
Kelajakda tengi yo'q  
O'zbekim faxri bo'lay.

Dilnoza PIDAYEVA,  
Hamza tumanidagi  
98- maktabning 7- sinf  
o'quvchisi.

## NONUSHTA

Tong otibdi bir mahal  
Ko'zim yorishgan chog'dan.  
Onam aytdi: Hoy qizim,  
Olma terib kel bog'dan.

Issiqqina choy qo'ydim  
Borib ichib olaqol.  
Keyin uy ishlariga  
Qarashaqol bo'laqol.

Aziza G'OFUROVA,  
Sobir Rahimov tumanidagi 24-  
maktabning 6- sinf o'quvchisi.

chevaralari Muxlisa va Sardordir. Ular ham buvijonimni juda yaxshi ko'rishadi.

Buvijonimning yetti nafar farzandlari bor. 26 ta nevaralari, 54 ta avaralari va ikkita chevaralari bor. Demak buvijonim to'rtinchi avlod bilan yuzma-yuz ko'rishayaptilar.

Biz nevara-yu chevaralar

duoda. Yurtimiz tinch, davlatimiz omon, farzandlarimiz sog'lom bo'lsin, deydilar.

Qarindosh urug'lar, qo'niqo'shnilar ulardan maslahat olib turishadi. Buvijonim ham jon deb ularga kerakli gaplarni aytadilar. Shuning uchun ham buvijonimni yoshu katta birdek yaxshi ko'radi.

Bugungi kunda

**BO'LIJNG**  
buvijonim 90 yoshdalar. Biz ham ularga qarata, doimo sog'-salomat bo'ling, hamisha oramizda yuring, deymiz.

Shahnoza MUXXSIMOVA,  
Toshkent shahar,  
Yunusobod tumanidagi  
260-maktabning  
6- sinf o'quvchisi.



**BUVIJONIM BOR**  
doimo

Siz suratda ko'rib turgan oppoq ro'molli mening buvijonimning onalaridir. Men ularni buvijonim deyman. Ularning issiqqina bag'rilarida turgan esa

buvijonimning atrofida yuramiz. Ularning nasihatlaridan, hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lamiz. Ayniqsa hadislaru hikoyatlarini jon deb tinglaymiz. Buvijonimning qo'llari hamisha

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
DAVLAT MATBUOT  
QO'MITASI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Komil YUSUPOV,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Sunnatilla QO'ZIYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 58.519  
nuxxada ofset usulida  
bosildi.  
Korxonada manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № F-2492  
Gazetani  
Muhabbat  
MAHSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08